



# UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025  
<https://universaljournal.uz>



**International indexes**

**GOOGLE SCHOLAR**

**CROSSREF (OAK BAZA)**

**ZENODO**

**OPEN AIRE**

**EUROPUB**

**RESEARCHGATE (OAK BAZA)**

**SJIF**

## XORAZM RAQS SAN`ATI

**Egamberdiyeva Umidaxon**

Andijon davlat universiteti “Sport va San`at” fakulteti Xalq cholg`u ijrochiligi 1-kurs talabasi  
**Uzbekistan**  
[adu@edu.uz](mailto:adu@edu.uz)

**Annotatsiya.** Xorazm – O`zbekistonning qadimiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etgan hududi sifatida nafaqat tarixiy obidalar va yozma manbalar, balki og`zaki ijod va sahna san`atining boy an`analariga ega. Mazkur maqolada Xorazm raqs san`atining shakllanishi jarayoni qadimgi marosimlar, xalq urf-odatlar va diniy e`tiqodlar bilan bog`liq holda tahlil qilinadi. Raqsning o`ziga xosligi, jumladan, qo`l harakatlari harakatlari, kaft ishoralari, ko`rinarli his tuyg`ular va tana ritmining bir butun dramatik kompozitsiyaga bo`ysundirilganligi raqs ijrosining shu bilan birga jismoniy, balki ruhiy-psixologik jihatlarni ham ochib beradi. Har bir element xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ichki ruhiy kechinmalari bilan bevosita bog`liq.

**Kalit so`zlar:** dramatik ifoda raqslarda, xorazm folklori, xorazmcha ritmlar, nomoddiy madaniy meros, dinamika, harakat ritmlari, kompozitsiya, hofizlar, tuproqqal`a, maqom, improvizatsiya.

**Аннотация:** Хорезм, как древний и культурно высокоразвитый регион Узбекистана, имеет не только исторические памятники и письменные источники, но и богатые традиции устного и исполнительского искусства. В статье анализируется процесс формирования хорезмийского танцевального искусства в связи с древними обрядами, народными традициями и религиозными

верованиями. Уникальность танца, включающая подчинение движений рук, жестов ладоней, видимых эмоций и ритмов тела единой драматургической композиции, раскрывает не только физические, но и духовные, психологические аспекты танцевального исполнения. Каждый элемент напрямую связан с мировоззрением, моральными ценностями и внутренним духовным опытом народа, которые формировались на протяжении веков.

**Ключевые слова:** драматическое выражение в танцах, хорезмский фольклор, хорезмские ритмы, нематериальное культурное наследие, динамика, ритмы движения, композиция, хафизы, тупуклала, маком, импровизация.

**Abstract:** Khorezm, as an ancient and culturally highly developed region of Uzbekistan, has not only historical monuments and written sources, but also rich traditions of oral creativity and performing arts. This article analyzes the process of formation of Khorezm dance art in connection with ancient rituals, folk customs and religious beliefs. The uniqueness of the dance, including the subordination of hand movements, palm gestures, visible emotions and body rhythms to a single dramatic composition, reveals not only the physical, but also the spiritual and psychological aspects of dance performance. Each element is directly related to the worldview, moral values and inner spiritual experiences of the people formed over the centuries.

**Keywords:** dramatic expression in dances, Khorezm folklore, Khorezm rhythms, intangible cultural heritage, dynamics, rhythms of movement, composition, Hafizs, Tupukqala, maqom, improvisation.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Egamberdiyeva, U. (2025). KHORESM DANCE ART. Universal International Scientific Journal, 2(4), 252–256. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1733>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15344102>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

## Kirish

Xorazm raqs san`ati O`zbekiston hududida shakllangan eng qadimiy raqs an`analaridan biridir. U nafaqat badiiy-estetik qadriyat, shuningdek xalqning tarixiy tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti va ma`naviy olamini o`zida mujassam etgan noyob madaniy meros hisoblanadi. Xorazm raqs san`ati

asrlar davomida shakllangan, rivojlangan va avloddan avlodga og`zaki va amaliy tarzda o`tib kelgan. Xorazm vohasi qadimdan buyuk madaniyat markazlaridan biri bo`lgan. Arxeologik topilmalar, qadimiy yodgorliklar va tarixiy yozma manbalar bu hududda raqs va musiqa san`ati qadimdan mavjud bo`lganini tasdiqlaydi. Qadimgi Xorazmda diniy marosimlar, hosil bayramlari, to`ylar va

turli xalq udumlarida raqs asosiy san`at shakli bo`lgan. Masalan, miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid arxeologik yodgorliklarda raqsga tushayotgan inson tasvirlari uchraydi. Ayniqsa, Tuproqqal`a, Qiyot va Ko`hna Urganch kabi yodgorliklarda topilgan haykaltaroshlik va devoriy suratlar bu raqslarning diniy, marosimiy va badiiy xarakterga ega bo`lganini ko`rsatadi. Xorazmning o`rta asrlar davrida, ya`ni IX-XII asrlarda, raqs san`ati saroy madaniyatining muhim qismi bo`lib xizmat qilgan. Xorazmshohlar davrida san`atkorlar, hofizlar, raqqosalar saroylarda xizmat qilgan. Bu davrda raqslar ko`proq musiqiy va she`riy san`at bilan uyg`unlashgan holda rivojlangan. Raqs ayniqsa, doston va maqom ijrosida sahnaviy element sifatida muhim o`rin egallagan.

### **ASOSIY QISM**

Xorazm raqs san`ati faqat saroy san`ati bo`lib qolmagan. U Xalq orasida, kundalik hayotda, ayniqsa to`ylar, bayramlar va marosimlarda faol ravishda ijro etilgan. Aynan xalq raqslari orqali Xorazm raqsining turfa uslublari va jo`shqin ifoda vositalari shakllangan. Xorazm raqs san`atining eng yorqin namunasi bu – “Lazgi” raqsidir. Lazgi qadimdan to hozirgacha o`zining energiyasi, ritmik harakatlari va chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. Ayniqsa Lazgi raqsi ko`pincha yakka ijroda namoyon bo`lgan. Bu uslub har bir raqqosaning shaxsiy ifoda kuchi, improvizatsiyasi va texnikasini ochib beradi. Jamoaviy raqslar esa bayramlar , to`ylar yoki ommaviy tantanalarda bir

necha raqqos birgalikda sinxron tarzda ijro etadi. Harakatlar aniq , muvofiqlashtirilgan bo`ladi. Bu uslub sahna ko`rinishlarda keng qo`llaniladi. “ Lazgi “ eng mashhur va xalqaro miqyosda tan olingan raqslardan biri bo`lib, uning ildizi qadimiy marosimlarga borib taqaladi. 2019- yilda “ Xorazm lazgisi” YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosi ro`yxatiga kiritilgan. Xorazmning mashhur raqsalaridan yana “ Tanovar “ , “ Munojot “ , “Bazm raqslari” – bular mazmunan turli xil mavzularni qamrab oluvchi raqslardir.

Xorazm raqsi o`zining jo`shqinligi, drammatizmi va ritmik murakkabligi bilan ajralib turadi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

Qo`l harakatlari – harakatlar goh silliq, goh keskin bo`lib, his-tuyg`ularni ifodalaydi. Qo`llarning har bir ohangga mos harakati harakatning mazmunini ochib beradi.

Yuz ifodasi va ko`z qarashi – raqqosa his-tuyg`ularni faqat tanasi bilan emas, balki yuz ifodasi bilan ham yetkazadi.

Harakat ritmi - raqsda keskin sur`at o`zgarishlari mavjud. To`satdan tezlashish yoki sekinlashish raqsga dinamika bag`ishlaydi.

Musiqqa bilan uyg`unlik - Xorazm raqsi doira , g`ijjak , nay , chang , kabi cholg`ular sadolari bilan ijro etiladi.

Erkaklar va Ayollar raqslari - an`anaviy jihatdan erkaklar raqsi kuchli va harakatchan, ayollar raqsi esa nafis va ma`noli bo`ladi.

Xorazm raqs kiyimlari an`anaviy va milliy uslubda bo`lib, raqsning ifodalovchi va estetik jihatlarini yanada boyitadi . Raqs kiyimlari faqat estetik jihatlarini ta`minlab qolmay, balki har bir raqs turi va ijrochi uchun muhim ma`no va ramzlarni ham ifodalaydi. Ayollar raqs kiyimlari odatda uzun , yengil va jozibali bo`ladi. Chiroyli ipak yoki atlas matolaridan tikilgan uzun yubkalar va ko`ylaklar keng tarqalgan. Ular raqqosaga harakatda qulaylik yaratadi va raqsda har bir harakatni aniq ko`ratadi. Ayollar asosan ko`pincha uzun ko`ylaklar yengilari va etagi naqshlar bilan bezatilgan bo`ladi. Ko`ylaklar yengil, oq yoki oltin, kumush ranglarda bo`lishi mumkin, bu raqqosaning nafisligi va go`zalligini ta`kidlaydi. Ayollar kiyimida belbog`lar juda muhim rol o`ynaydi. Ular raqqosaning tasvirini yanada kuchaytiradi, belni ta`kidlab, harakatlarni yanada ta`riflaydi. Ayollar raqqosalarining ko`pincha boy marjonlar, taqinchoqlar bilan bezatilgan bo`ladi.

Erkaklar raqs kiyimlari odatda o`rta uzunlikda bo`ladi. Yengil yoki yengil ko`ylaklar ko`proq ishlatiladi, ko`ylaklarning ranglari qora, oq, ko`k yoki oltin ranglarda bo`lishi mumkin. Erkaklar raqs kiyimida belbog` muhim rol o`ynaydi. Ular raqqosaning harakatini va ifodasini kuchaytiradi. Erkak raqqosalarining belbog`lari ko`pincha qalin va mustahkam bo`ladi.

Teatr sahnalarida Xorazm raqs san`ati ko`pincha katta va yorqin kiyimlarda ijro etiladi. Bu kiyimlar nafaqat estetik jihatdan boyitilgan, balki sahna yorug`ligi va

bezaklari bilan uyg`unlashgan bo`lishi kerak.

XX asrning oxiridan boshlab, Xorazm raqsi an`anaviy ko`rinishdan chiqib, sahna san`atining bir qismi sifatida namoyon bo`la boshladi. Bu o`zgarish raqsning o`ziga xosligiga zarar bermadi, aksincha uni yangicha uslubda jonlantirdi. Bugungi kunda Xorazm raqsi yoshlar oraida ham ommalashgan. Xususan, Xorazm viloyatidagi raqs anambllari va san`at maktablari bu san`at turini yoshlar orasida yanada rivojlantirishga katta hissa qo`shmoqda. Yosh raqqosalar, an`anaviy raqsi sahnada ijro etishda zamonaviy musiqalar bilan uyg`unlashib, unga yangi nafas berishmoqda. Xorazm raqsi endi nafaqat xalq tadbirlarida, balki milliy va xalqaro festivallarda ham namoyish etilmoqda. Raqsqa asoslangan festival va musobaqalar yoshlarni o`z san`atini dunyo miqyosida tanitishga imkon yaratmoqda.

#### XULOSA

Xorazm raqs san`ati - bu O`zbekiston xalqining madaniy yodgorligi, ma`naviy boyligi va badiiy ifoda vositasidir. U asrlar davomida shakllanib, turli xil tarixiy bosqichlardan o`tgan bo`lsa-da, o`zining mazmuni va go`zalligini yo`qotmagan. Bu raqs xalqning hayot tarsi, ruhiy olami va san`atga bo`lgan munosabatini ifodalovchi vositadir. Xorazm raqslari – bu xalqning tarixiy xotirasi, quvonchi va orzusidir. Ular orqali biz o`tmishimizni anglaymiz, bugungi kunimizni bezaymiz va kelajak avlodlarga bebaho san`at merosini yetkazamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 . Milliy va Xalqaro raqs festivallari : O`zbekistondagi tajribalar.
2. Xalq raqslari va ularning ifodaviy xususiyatlari.
3. Xorazm xalq raqslari.
4. O`zbek raqs san`atining rivojlanishi.